


YALPI ICHKI MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2020-yil yanvar-mart oylarida O`zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YalIM) hajmi joriy narxlarda 110 517,8 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2019-yilning¹ yanvar-marti bilan taqqoslaganda 4,1 % ga o`sdi. YalIM deflyator indeksi 2019-yil yanvar-martdagi narxlarga nisbatan 114,1 % ni tashkil etdi.



Yanvar-mart oylarida O`zbekiston Respublikasining YalIM hajmi (joriy narxlarda, trln.so`m)




2020-yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko`ra, YalIM tarkibida tovarlar ishlab chiqarishda 55 729,1 mlrd. so`m, xizmatlar ko'rsatish sohasida – 44 172,0 mlrd. so`m miqdorida yalpi qo'shilgan qiymat yaratildi, mahsulotlarga sof soliqlar esa 10 616,7 mlrd. so`mni tashkil etdi.



Yanvar-mart oylarida YalIM fizik hajm indeksi va deflyator indeksi dinamikasi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan foiz hisobida)

Keltirilgan diagrammada ko`rinib turganidek, 2020-yil yanvar-mart oylarida YalIM o'sishi 2019-yil yanvar-martdagi 5,7 % va 2018-yil yanvar-martdagi 5,6 % ga nisbatan 4,1 % gacha sekinlashdi. Shu bilan birga, YalIM deflyator indeksida ham 2019-yil yanvar-martdagi 121,3 % va 2018-yil yanvar-martdagi 136,7 % ga nisbatan 2020-yil yanvar-mart oylarida 114,1 % gacha sekinlashish kuzatildi.



¹ Bu yerda va keyingi o'rinnlarda 2018-2019-yillar yanvar-mart oylari uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan.

YalM iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o`lchanadigan milliy hisoblar tizimining asosiy ko`rsatkichlaridan biridir.

YalM fizik hajm indeksi (real o'sish sur'ati), doimiy narxlarda, ya'nı o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YalMni (real YalM), joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri YalMga nisbati orqali hisoblanadi.



YalM deflyator indeksi iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal YalMning (joriy narxlardagi hisobot davri YalM) real YalMga nisbati orqali hisoblanadi.



Yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YalM hajmi
(joriy narxlarda, ming.so'm)



Yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YalM o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Kuzatilayotgan davrda o'rtacha almashuv kursi bo'yicha hisoblangan nominal YalM hajmi 11 597 mln. AQSh dollarini tashkil etdi (2019-yilning yanvar-martida – 11 112 mln. AQSh doll.).

Ma'lumot uchun: 2020-yil yanvar-mart oylarida AQSh dollarining so'mga nisbatan o'rtacha rasmiy kursi 9 530 so'm, 2019-yil yanvar-mart oylarida 8 378 so'mga teng bo'lган.

Aholi jon boshiga hisoblangan YalM 3 253 ming so'mni (yoki 341 AQSh doll. ekvivalentida) tashkil etdi va bu ko`rsatkich 2019-yil yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 2,0 % ga o'sdi. Aholi jon boshiga YalM o'sishi 2018- va 2019-yil yanvar-mart oylarida mos ravishda 3,9 % va 3,8 % ni tashkil etgan.

Ma'lumot uchun: Aholi jon boshiga YalM, joriy narxlardagi YalM umumiy hajmini mamlakatning ma'lum bir davrdagi o'rtacha aholisi soniga bo'llish yo'lli bilan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining o'rtacha soni 2018-yilning yanvar-martida 32 710 ming kishini, 2019-yilning yanvar-martida 33 316 ming kishini va 2020-yilning yanvar-martida 33 971 ming kishini tashkil qilgan.



**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YalM ishlab chiqarish hajmi
(joriy narxlarda, mlrd. so'm)**

	2018-yil	2019-yil	2020-yil
I. YalM, jami	72 615,4	93 101,6	110 517,8
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	62 107,9	82 633,5	99 901,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	10 507,5	10 468,1	10 616,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	62 107,9	82 633,5	99 901,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi	10 102,8	11 887,5	14 742,6
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	23 554,2	33 940,1	40 986,5
sanoat	19 211,2	28 478,1	34 333,0
qurilish	4 343,0	5 462,0	6 653,5
Xizmatlar	28 450,9	36 805,9	44 172,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 861,3	7 018,2	8 262,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6 777,0	8 079,8	9 059,6
boshqa xizmat tarmoqlari	15 812,6	21 707,9	26 849,7




**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YalM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**

	2018-yil	2019-yil	2020-yil
I. YalM, jami	100,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	85,5	88,8	90,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	14,5	11,2	9,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0	100,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi	16,3	14,4	14,8
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	37,9	41,1	41,0
sanoat	30,9	34,5	34,4
qurilish	7,0	6,6	6,6
Xizmatlar	45,8	44,5	44,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9,4	8,5	8,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	10,9	9,7	9,1
boshqa xizmat tarmoqlari	25,5	26,3	26,8

2019-yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida sezilarsiz o'zgarishlar kuzatildi. YalM (YaQQ) tarmoqlari tarkibida sanoatning ulushi 34,5 % dan 34,4 % gacha, xizmatlar sohasining ulushi 44,5 % dan 44,2 % gacha kamaygan bir paytda, qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligining ulushi 14,4 % dan 14,8 % ga oshdi. Qurilish tarmog`ining ulushi 2019-yilning yanvar-mart oylaridagi holatda saqlanib qoldi va 6,6 % ni tashkil qildi.



**2020-yil yanvar-mart oylarida YalMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**



2019-yil yanvar-mart oylarida 2018-yilning mos davri bilan taqqoslaganda YalM tarkibida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ulushining 14,4% gacha pasayishi (2018-yilning yanvar-martida - 16,3%) va sanoat tarmog'i ulushining 34,5% gacha oshishi (2018-yilning yanvar-martida - 30,9%) bilan bog'liq sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan.



**Yanvar-mart oylarida YalMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan foiz hisobida)**


	2018-yil	2019-yil	2020-yil
I. YalM, jami	105,6	105,7	104,1
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	105,7	105,6	104,0
Mahsulotlarga sof soliqlar	105,4	106,3	104,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	105,7	105,6	104,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	101,6	102,4	103,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	109,7	107,4	104,4

	2018-yil	2019-yil	2020-yil
sanoat	107,7	106,9	104,0
qurilish	117,4	110,0	106,5
Xizmatlar	104,5	105,3	103,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	101,2	106,6	103,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	107,2	106,3	105,7
boshqa xizmat tarmoqlari	104,7	104,3	103,2

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat hajmi YaIM umumiyligi hajmining 90,4 % ini tashkil etdi va 4,0 % ga o`sdi (YaIM mutloq o`sishiga ta`siri 3,6 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 9,6 % ni tashkil etdi va 4,2 % darajasida o`sish qayd etildi (YaIM mutloq o`sishiga ta`siri 0,5 f.p.).



**2020-yil yanvar-mart oylarida YaIMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo`yicha mutloq o`sish sur`atlari**
(o`tgan yilning mos davriga nisbatan foiz hisobida)



2020-yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko`ra, **qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida** 3,9 % darajasida ijobiy o`sish qayd etildi. Mazkur tarmoqning YalM mutloq o`sish sur`atiga ta`siri 0,5 f.p.ni tashkil etdi. Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida ijobiy o`sish sur`atlari dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 6,4 % ga va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,6 % ga o`sishi bilan bog'liq.

Ma'lumot uchun:

Dastlabki ma'lumotlarga ko`ra, 2020-yil yanvar-mart oylarida natura shaklida qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi quyidagicha bo'lgan:

- | | |
|--------------------------------|--|
| ✓ <i>sabzavotlar</i> | – 62,6 ming t. (yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 111,3 %); |
| ✓ <i>go'sht (tirik vaznda)</i> | – 476,7 ming t. (104,0 %); |
| ✓ <i>sut</i> | – 1 776,4 ming t. (102,9 %); |
| ✓ <i>tuxum</i> | – 1 372,2 mln. dona (105,2 %). |

2020-yil yanvar-mart oylarida **sanoat tarmog`ining** qo`shilgan qiymatida 4,0 % ga o`sish qayd etildi. Sanoat ishlab chiqarishining YalM mutloq o`sish sur`atiga ijobiy ta`siri 1,2 f.p.ni tashkil qildi. Sanoat tarmog`idagi ijobiy dinamika asosan ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat tarmog`i qo`shilgan qiymatining 8,9 % (2019-yil yanvar-martida - 7,5 %, 2018-yil yanvar-martida - 3,6 %) ga o`sishi hisobiga ta`minlandi. O'tgan ikki yil davomida sezilarli o'sishdan so'ng tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash tarmog`i qo`shilgan qiymati hajmining taqqoslama narxlarda 11,9 % ga pasayishi kuzatildi (2019-yilning yanvar-martida 5,3 % ga, 2018-yilning yanvar-martida 25,8 % ga o'sgan).



**Yanvar-mart oylarida sanoat tarmog`ining yalpi qo`shilgan
qiymat hajmi
(joriy narxlarda, mld. so'm)**

		2018-yil	2019-yil	2020-yil
	Sanoat	19 211,2	28 478,1	34 333,0


shu jumladan:

		2018-yil	2019-yil	2020-yil
	tog` - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	4 119,0	6 343,8	6 796,9
	ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat	13 478,4	19 706,3	24 402,3
	sanoatning boshqa tarmoqlari	1 613,8	2 428,0	3 133,7

**Yanvar-mart oylarida sanoat tarmog'i yalpi qo'shilgan qiymatining
o'sish sur'atlari**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan foiz hisobida)

		2018-yil	2019-yil	2020-yil
	Sanoat	107,7	106,9	104,0
	<i>shu jumladan:</i>			
	tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	125,8	105,3	88,1
	ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat	103,6	107,5	108,9
	sanoatning boshqa tarmoqlari	106,2	105,3	100,7

Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning jami sanoat bo'yicha yaratilgan qo'shilgan qiymat tarkibidagi ulushi 2019-yil yanvar-martdagi - 69,2 % ga nisbatan 71,1 % gacha o'sishi qayd etildi. Shunga mos ravishda, joriy davrda sanoatning jami qo'shilgan qiymati tarkibida tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining ulushi 19,8 % gacha pasaydi (2019-yil yanvar-martida 22,3 %).

Yanvar-mart oylarida sanoat tarmog'ining yalpi qo'shilgan
qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)Tog'-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlashIshlab chiqaradigan
(qayta ishlash) sanoatSanoatning boshqa
tarmoqlari

2020-yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning qo'shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush metallurgiya va metallni qayta ishlash sanoatiga (mashina va uskunalardan tashqari) to'g'ri keldi va 41,0 % ni tashkil etdi.

To'qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi – 13,6 %, oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish – 11,9 %, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – 8,0 %, rezina, plastmassa buyumlar va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 7,5 %, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar hamda boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish – 6,5 %, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – 3,0 %, elektr uskunalari ishlab chiqarish – 2,8 % hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning boshqa mahsulotlarini ishlab chiqarish – 5,7 % ni tashkil qildi.



**Yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat
yalpi qo'shilgan qiymatining tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**

		2018-yil	2019-yil	2020-yil
	Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat – jami	100,0	100,0	100,0
	Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	13,6	12,0	11,9
	To`qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	15,2	13,3	13,6
	Yog` och va qog`oz mahsulotlarini ishlab chiqarish; yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	2,0	1,6	1,4
	Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	2,3	3,0	3,0
	Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	10,3	8,6	8,0
	Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	1,1	1,0	0,9
	Rezina va plastmassa buyumlar va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	9,3	7,5	7,5
	Metallurgiya va metallni qayta ishlash sanoati (mashina va uskunalaridan tashqari)	33,0	40,0	41,0
	Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,5	0,4	0,8
	Elektr uskunalar ishlab chiqarish	3,1	2,8	2,8
	Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	1,4	1,0	0,9

		2018-yil	2019-yil	2020-yil
	Avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa transport uskunalarini ishlab chiqarish	5,9	7,0	6,5
	Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish; mashina va uskunalarni ta`mirlash hamda o`rnatish	2,3	1,8	1,7

Ma'lumot uchun:

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-mart oylarida yirik korxonalar tomonidan natura shaklida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi quyidagicha bo'lgan:

- | | |
|---------------------------------|---|
| ✓ <i>ko'mir</i> | - 1 048,2 ming t. (yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 129,6 %); |
| ✓ <i>neft</i> | - 172,0 ming t. (98,5 %); |
| ✓ <i>tabiiy gaz</i> | - 13 073,3 mln. kub metr (92,2 %); |
| ✓ <i>gaz kondensati</i> | - 383,6 ming t. (94,9 %); |
| ✓ <i>chaqiq tosh</i> | - 217,3 ming t. (106,1 %); |
| ✓ <i>yengil avtomobillar</i> | - 75 635 dona (127,1 %); |
| ✓ <i>yuk avtomobillari</i> | - 1 014 dona (76,6 %); |
| ✓ <i>avtomobil dvigatellari</i> | - 64,6 ming dona (133,2 %); |
| ✓ <i>avtobuslar</i> | - 312 dona (78,4 %); |
| ✓ <i>traktorlar</i> | - 222 dona (2,2 marta); |
| ✓ <i>portlandsement</i> | - 1 792,4 ming t. (89,6 %); |
| ✓ <i>dizel yoqilg'isi</i> | - 254,5 ming t. (95,2 %); |
| ✓ <i>avtomobil benzini</i> | - 282,7 ming t. (115,5 %); |
| ✓ <i>paxtadan yigirilgan ip</i> | - 70,0 ming t. (115,0 %); |
| ✓ <i>tamaki mahsulotlari</i> | - 2 515,0 mln. dona (100,1 %); |
| ✓ <i>elektr energiyasi</i> | - 16 801,7 mln. kVt / soat (99,7 %); |
| ✓ <i>issiqlik energiyasi</i> | - 10 017,1 ming Gkal (99,4 %). |

2019-yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda qurilish ishlari hajmi 6,5 % ga o'sdi va mazkur tarmoqning YalM o'shidagi ijobiy hissasi 0,4 f.p.ni tashkil qildi.

Ma'lumot uchun:

2020-yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlari hajmi 15 462,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlaring umumiyligi hajmida yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 27,7 %, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 52,5 %, jismoniy shaxslar ulushi 19,8 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-marti yakunlariga ko`ra, **xizmat ko`rsatish sohasining** yalpi qo`shilgan qiymati hajmi 44 172,0 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 3,8 % ga o`sdi (YALM o`sishidagi hissasi 1,5 f.p.ni tashkil etdi). Shundan, savdo xizmatlari (avtotransport vositalarini ta`mirlashni qo`shgan holda) 3,9 % ga, tashish va saqlash xizmatlari 2,7 % ga, axborot va aloqa xizmatlari 17,7 % ga va xizmatlar sohasining boshqa tarmoqlari 3,2 % ga o`sdi. Yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar sohasida salbiy dinamika qayd etildi va 1,7 % ga kamaydi.

2020-yilning yanvar-martida **savdo (avtotransport vositalarini ta`mirlashni qo`shgan holda) tarmog`ining** yalpi qo`shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari) ga to`g`ri keldi va 68,2 % (2019-yil yanvar-martida - 67,5 %) ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari) ning ulushi 24,9 % (2019-yil yanvar-martida - 26,0 %) ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta`mirlash 6,9 % (2019-yil yanvar-martida - 6,5 %) ni tashkil qildi.



**Yanvar-mart oylarida savdo tarmog`ining (avtotransport vositalarini ta`mirlashni qo`shgan holda) qo`shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**



**Avtotransport vositalarining ulgurji
va chakana savdosi (ularni
ta`mirlashni qo`shgan holda)**



**Ulgurji savdo (avtotransport
vositalari savdosidan tashqari)**



**Chakana savdo (avtotransport
vositalari savdosidan tashqari)**



2020-yil yanvar-mart oylarida **tashish va saqlash** tarmog`ining qo`shilgan qiymati tarkibida eng ko`p ulush avtomobil transportiga to`g`ri keldi va 53,3 % ni tashkil etdi (2019-yil yanvar-martida - 50,8 %). Mazkur tarmoq umumiy qo`shilgan qiymatida quvur transportining ulushi 17,4 % (2019-yil yanvar-martida - 20,9 %), temir yo`l transportining ulushi 13,3 % (2019-yil yanvar-martida - 12,3 %), yordamchi transport faoliyatining ulushi 9,8 % (2019-yil yanvar-martida - 10,6 %) va havo transportining ulushi 6,2 % (2019-yil yanvar-martida - 5,4 %) ni tashkil etdi.




**Yanvar-mart oylarida tashish va saqlash tarmog`ining
qo`shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**


2018-yil



2019-yil



2020-yil



**Avtomobil
transporti
xizmatlari**



**Quvur
transporti
xizmatlari**



**Temir yo'l
transporti
xizmatlari**



**Havo
transporti
xizmatlari**



**Yordamchi
transport
xizmatlari**

Ma'lumot uchun:

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-mart oylarida barcha transport turlari tomonidan 268,0 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, ushu ko'rsatkich 2019 - yilning yanvar-martiga nisbatan 105,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuk aylanmasi 16,8 mlrd. t-km. ga yetdi yoki 2019 - yilning yanvar-martiga nisbatan 100,6 % ni tashkil etdi.

Transport turlari bo'yicha yuk aylanmasi:

- ✓ temir yo'l transporti – 5,5 mlrd. t-km (yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 102,1 %);
- ✓ havo yo'l transporti – 0,02 mlrd. t-km (94,6 %);
- ✓ quvur yo'l transporti – 8,4 mlrd. t-km (98,2 %);
- ✓ avtomobil transporti – 2,9 mlrd. t-km (104,8 %).


2020-yilning yanvar-mart oylarida barcha transport vositalari orqali 1 368,2 mln. yo'lovchi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 103,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yo'lovchi aylanmasi 31,0 mlrd. yo'lovchi-km. ni yoki 2019 - yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 100,6 % ni tashkil etdi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi aylanmasi:

- ✓ temir yo'l transporti – 0,9 mlrd. yo'lovchi-km (92,3 %);
- ✓ havo yo'l transporti – 2,0 mlrd. yo'lovchi-km (82,4 %);
- ✓ avtomobil transporti – 27,9 mlrd. yo'lovchi-km (102,5 %);
- ✓ metropoliten – 140,8 mln. yo'lovchi-km (106,0 %).



Yanvar-mart oylarida axborot va aloqa tarmog'ining
qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)



2020-yilning yanvar-martida **axborot va aloqa tarmog'**ining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi 2,0 % ni tashkil etdi (2019-yilning yanvar-martida - 1,9%). Axborot va aloqa tarmog'i qo'shilgan qiymati tarkibida asosiy ulush telekommunikatsiya xizmatlariga (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i va boshqalarga) to'gri keldi va 76,4 % ni tashkil etdi (2019-yilning yanvar-martida - 76,5%). Tarmoqda yaratilgan qo'shilgan qiymatning qolgan 23,6 % i (2019-yilning yanvar-martida - 23,5%) axborot va aloqaning boshqa tarmoqlari (nashriyot faoliyati, kompyuter dasturlashtirish sohasidagi faoliyat, dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish v.b) hissagi to'g'ri keladi.


Xulosa o'rnila ta'kidlash mumkinki, YalM o'sishida 2019-yilning mos davridagiga (2,1 foiz punkt) nisbatan pasayishiga qaramay xizmatlar sohasining hissasi (1,5 foiz punkt) eng yuqori bo'lди.

YalMning o'sishiga sanoat tarmog'i ham salmoqli hissa qo'shgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-martida 1,2 f.p. ni tashkil etdi. 2019-yilning shu davrida esa ushbu ko'rsatkich 1,8 f.p. ni tashkil etgan edi.

2020-yilning yanvar-martida iqtisodiyotning “Qurilish”, “Qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi” kabi tarmoqlari YalMning mos ravishda 0,4 f.p. (2019-yilning yanvar-martida - 0,6 f.p.) va 0,5 f.p. (2019-yilning yanvar-martida - 0,3 f.p.) ga o’sishiga hissa qo’shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning oshishi hisobiga YalMning 0,5 f.p. ga o’sishi ta’minlandi (2019-yilning yanvar-martida - 0,9 f.p.).



2020-yil yanvar-mart oylarida YalM o’sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2020-yilning yanvar-marti yakunlari bo'yicha, kichik tadbirkorlik (biznes) sub`yektlari tomonidan 45 749,9 mlrd. so`m miqdorida qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotda yaratilgan jami qo'shilgan qiymat hajmining 45,8 %i yaratildi.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymatda kichik tadbirkorlik (biznes) ning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 98,0 %, qurilishda 76,1 %, xizmatlar sohasida 39,6 % va sanoatda 25,5 % ni tashkil etdi.


Ma'lumot uchun:

2020-yilning yanvar-mart oylari davomida 23,3 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo`jaliklaridan tashqari) tashkil etildi. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko`p soni savdo (39,9 %), sanoat (18,6 %), qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi (11,3 %), qurilish (7,9 %), yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar (7,4 %), tashish va saqlash (2,8 %) sohalarida tashkil etildi.


**2020-yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha
YalMda kichik tadbirkorlik (biznes)ning ulushi
(YaQQga nisbatan % da)**

2020-yil yanvar-mart oylarida YalM deflyator indeksi 2019-yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 114,1 % ni tashkil etdi. YalM tarkibida deflyator indeksining yuqori ko`rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligida – 119,4 %, sanoat tarmog`ida – 116,0 %, qurilishda – 114,4 % va boshqa xizmat tarmoqlarida - 119,8 % qayd etildi.

Respublikaning o`rtacha darajasi (114,1 %) dan past bo`lgan deflyator indekslari tashish va saqlash, axborot va aloqada (106,1 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarda (113,9 %) va mahsulotlarga sof soliqlarda (97,4 %) kuzatildi.



**Yanvar-mart oylarida YalMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)**



*Makroiqtisodiy indikatorlar
va milliy hisoblar boshqarmasi
Tel.: 71 230-80-28 (30)*